

**TALABA YOSHLAR ONGIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY
MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASPEKTINI
RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI**

Xoliqulov Muhammad

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Obruyeva Dilbar

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida talaba yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi yoritilgan. Talabalarning huquqiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, O'zbekiston Respublikasida bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar va qabul qilingan me'yoriy hujjatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, yoshlar, huquqiy imidj, davlat siyosati, demokratik jamiyat, huquqiy islohotlar, huquqiy bilim, "Street law" loyihasi.

Abstract: This article highlights the relevance of forming legal awareness and legal culture of students in the context of globalization. The development of legal knowledge and skills of students is considered one of the important directions of state policy, and the reforms implemented in this regard in the Republic of Uzbekistan and the adopted regulatory documents are analyzed.

Keywords: Legal awareness, legal culture, legal education, youth, legal image, state policy, democratic society, legal reforms, legal knowledge, "Street law" project.

Globalizatsiyalashgan jamiyatda talaba yoshlarning huquqiy ong va madaniyatini rivojlantirish ularda huquqiy imidj shakllantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojllandan ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlatlarda jamiyatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida yoshlarda huquqiy ko'nikmalarni shakllantirish birlamchi vazifalardan biri sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, mamlakatimizda yoshlarga ayniqsa ijtimoiy muhitning richagi sifatida talabalarning har tomonlama yetuk, malakali kadr bo'lib chiqishlariga qaratilgan davlat siyosati ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan respublika sport musobaqalari tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"¹gi 864-son qarori, "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"²gi 23-son qarori, eng muhimi O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"³gi 406-son qonuni ushbu

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.10.2018 yildagi 864-son

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son

³ O'zbekiston Respubli.

sohaga qaratilayotgan keng ko'lamli islohalarning ne chog'lik muhimligini ko'rsatib beradi. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: *“Yoshlarimiz hayotda munosib o'rnini topishi uchun bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarni to'liq ishga solamiz. Sizlar mamlakatimizning ishonchi va tayanchi, kelajagimiz bunyodkorlarisiz”*-deya keltirgan fikrlari ham bu sohaga qaratilayotgan e'tiborning o'ziyoq ushbu mavzuning dolzarbligini isbotlab bermoqda.

Huquq ma'naviy hayot hodisasi sifatida ijtimoiy ong sohasiga tegishli bo'lib, huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash faoliyati va boshqa yuridik jarayonlar umumbashariy madaniyat yutug'i sifatida baholanadi. Ushbu jarayonlarni ifodalash maqsadida huquqshunoslikda maxsus tushuncha qo'llaniladi. Huquqiy ong kategoriyasi huquqiy voqelikning alohida o'lchovini aks ettiruvchi ana shunday tushunchalar qatoriga kiradi. U jamiyat va davlat miqyosida sodir bo'ladigan turli hayotiy jarayonlarni tartibga solishda faol ishtirok etadi, fuqarolarni ijtimoiy barqarorlikka yo'naltirish bilan birga jamoat tartibini saqlash hamda mustahkamlashga xizmat qiladi. Jamiyatda huquqiy ongning yuqori bo'lishi, fuqarolarning qonunga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi demokratik davlatning samarali faoliyat yuritishiga, siyosiy va huquqiy tizimning barqaror ishlashiga zamin yaratadi.

Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, odamlarning jamiyat va atrof-muhitni anglash jarayonida muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy ong siyosiy, axloqiy-ma'naviy, estetik, diniy va huquqiy shakllarga ajraladi. Biroq real hayotda ko'plab vaziyat va sharoitlar huquq, majburiyat hamda mas'uliyat nuqtayi nazaridan baholanadi. Huquqiy ong avvalo huquqni, shuningdek, insonlarning amaldagi va ideal huquqqa bo'lgan munosabatlarini aks ettiruvchi tasavvurlar va hissiyotlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. U jamiyat a'zolarining huquq hamda ijtimoiy hayotda real mavjud bo'lgan huquqiy hodisalar haqidagi qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, baholari va ruhiy munosabatlarini o'zida mujassam etadi.

Huquq ijtimoiy hodisa sifatida ongdan mustaqil holda mavjud bo'la olmaydi. U haqiqiy voqelikning boshqa hodisalari singari jamiyat ongida aks etib, faqatgina in'ikos shaklida emas, balki bilish vositasi hamda usuli sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu murakkab ruhiy sohada kechadigan tafakkur va fikrlash jarayonlari huquqiy haqiqatning ongda aks etishi va huquqiy bilimlarning shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Huquq va ong o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni inobatga olgan holda, avvalo, huquqiy ong tushunchasini aniq belgilash lozim.

Huquqiy ong – insonlarning huquqiy bilim va tushunchalarga ega bo'lishi hamda huquq borasidagi tasavvurlarining ongda aks etishidir. U ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ongning yagona shakli hisoblanmaydi. Huquqiy talablarga munosabat, huquqiy bilim darajasi, yangiliklardan xabardorlik, shuningdek, umumiy hamda huquqiy madaniyat saviyasining yuqoriligi huquqiy ong shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

X.T.Odilqoriyev ta’biri bilan aytganda: Huquq qanday fe’l-atvor shaklida(qonuniy yoki qonunsiz) amalga oshirilmasin, u barcha hollarda, avvalo, insonning ongiga qaratilgan bo’lib, u orqali fe’l-atvorni tartibga solishga ta’sir ko’rsatiladi. Huquq va huquqiy ongning yuqoridagidek o’zaro ta’sirida, shu murakkab ijtimoiy hodisaning ijtimoiy munosabatlarga ta’sir kuchi va tartibga soluvchi ta’sirining mohiyati namoyon bo’ladi. Huquqiy ongning asosiy tarkibiy elementlari huquqiy ruhiyat (psixologiya) va huquqiy mafkura (ideologiya). Huquqiy ruhiyat (psixologiya)-bu alohida ijtimoiy guruh shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg’ular, hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig’indisidan iborat bo’lgan huquqiy ongning tarkibiy elementi”⁴, hisoblanadi.

Xalqimizning huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksalib borish bilan bir qatorda, yoshlarimizning ham huquqiy ong va huquqiy madaniyat saloxiyatini oshirish maqsadida bir qancha loyihalar ishlab chiqilgan. Ulardan biri, yoshlarga o’z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o’rgatish maqsadida “Street law” (Ko’cha huquqi — oddiy huquq) loyihasini keng joriy qilish bo’yicha quyidagi tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish: huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim muassasalari talabalari, yuridik kollejlari o’quvchilari, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko’ngillilar (volonter) guruhini shakllantirish; “Street law” loyihasi amalga oshirilishini metodik ta’minlash choralari ishlab chiqish; ko’ngillilar guruhlar uchun interaktiv mashg’ulotlar olib borish metodikasi bo’yicha treninglar o’tkazish; ko’ngillilar tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari hamda umumta’lim maktablari o’quvchilari uchun mashg’ulotlar o’tkazish⁵.

Yaratib berilayotgan keng imkoniyatlardan oqilona foydalanish, uni targ’ib qilish ham bizning ma’naviy burchimizga aylanishi darkor. Talaba yoshlar – jamiyatning kelajagi va uning rivojlanishida muhim rol o’ynaydigan avlod. Ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish esa, nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning barqarorligi va adolatli kelajagi uchun ham zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat jamiyatning barcha darajadagi munosabatlarini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. Fuqarolarning mansabi yoki ijtimoiy holatidan qat’i nazar teng huquqli bo’lishi, o’z huquqlaridan erkin foydalanishi hamda mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishini kafolatlaydigan barqaror tizim aynan huquqiy ongning amaliy ifodasi bo’lmish huquqiy madaniyatdir.

Demokratik jamiyatda erkin va farovon hayot kechirish fuqarolarning birdamligi va o’zaro tushunishiga bog’liqdir. Bu esa mamlakat taraqqiyoti yo’lida hamjihatlikda harakat qilish va yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashashni anglatadi. Yangilanayotgan mustaqil O’zbekistonda voyaga yetayotgan har bir yoshning huquqiy

⁴ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –T.: Sharq nashriyoti. –B.34.

⁵ <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>

tarbiyaga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega bo'lib, bu ularning ijtimoiy-huquqiy, siyosiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'rifiy sohalaridagi o'zgarishlarga daxldorligini oshiradi.

Qonun va qonunosti hujjatlarga hurmat, burchga sadoqat, adolatli sudlovga ishonch kabi tamoyillar aslida huquqiy tarbiya natijasida shakllanadigan huquqiy ong va madaniyat mahsulidir. Huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning negizi bo'lib, jamiyat a'zolarining huquqqa, qonunlarga va sud tizimiga bo'lgan munosabatlarini shakllantiruvchi muhim omil sanaladi. Shu bois, yuksak huquqiy madaniyatga ega jamiyat barqaror va adolatli taraqqiyot sari dadil odimlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.10.2018 yildagi 864-son
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son
3. O'zbekiston Respubli.
4. kasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O'RQ-406-son
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. –T.: Sharq nashriyoti. – B.34.
6. <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>
7. Sadriyevna, A. L., & Qaxor o'g'li, X. M. (2023). KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI. *BARCHA SOHALAR BO'YICHA*, 32.
8. O'G'LI, X. M. Q. (2024). GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 4(1), 22-27.
9. O'G'LI, X. M. Q., & Qizi, G. O. M. G. O. (2024). A. NAVOIYNING AR'BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO'G'IRISIDAGI QARASHLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(4), 24-28.
10. Xoliqulov, M. Q. O. G. L. (2024). MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 384-388.
11. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'LI. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.26 (2024): 384-388.
12. Kholikulov, Muhammad, and Hasan Jumanov. "THE CONCEPT OF PERSONAL PERFORMANCE IN THE THOUGHT OF ABU MANSUR MATURIDI." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 252-261.

13. Kholikulov, M., & Jumanov, H. (2025). THE CONCEPT OF PERSONAL PERFORMANCE IN THE THOUGHT OF ABU MANSUR MATURIDI. *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal*, 2(1), 252-261.

14. qizi Rustamova, Odinabonu Shavkat. "MARKAZIY OSIYODA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY VA GEOSTRATEGIK O'RNI VA ROLI (ZBIGNEV BJENISKIYNING "BUYUK SHAXMAT TAXTASI ASARI ASOSIDA)." *Analysis of world scientific views International Scientific Journal* 3.1 (2025): 150-157.

15. qizi Rustamova, O. S. (2025). MARKAZIY OSIYODA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY VA GEOSTRATEGIK O'RNI VA ROLI (ZBIGNEV BJENISKIYNING "BUYUK SHAXMAT TAXTASI ASARI ASOSIDA). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 3(1), 150-157.

16. Azlarova, Ozodaxon Xasanxonovna. "DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA)." *Analysis of world scientific views International Scientific Journal* 3.1 (2025): 141-149.

17. Azlarova, O. X. (2025). DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 3(1), 141-149.

18. Abduqodirov, Asilbek, and Muhammad Xoliqulov. "YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI." *Академические исследования в современной науке* 3.27 (2024): 100-105.

19. Abduqodirov, A., & Xoliqulov, M. (2024). YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI. *Академические исследования в современной науке*, 3(27), 100-105.

20. Mansur o'g'li, A. A., & Qaxor o'g'li, X. M. YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI.

21. Mansur o'g'li, Asilbek Abduqodirov, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI."

22. Qaxor o'g'li, Xoliqulov Muhammad. "YANGI O 'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: FIN TA'LIM TIZIMINING TA'LIM SOHASIGA INTEGRATSIYA QILISH MUAMMOLARI." *Ustozlar uchun* 57.4 (2024): 65-67.

23. Qaxor o'g'li, X. M. (2024). YANGI O 'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: FIN TA'LIM TIZIMINING TA'LIM SOHASIGA INTEGRATSIYA QILISH MUAMMOLARI. *Ustozlar uchun*, 57(4), 65-67.

24. Qaxor o'g'li, Xoliqulov Muhammad. "OMMAVIY MADANIYAT NIQOBI OSTIDA HARAKAT QILUVCHI MAFKURALAR HAMDA ULARNING YOSHLAR ONGIGA TASIRI." *Ustozlar uchun* 57.4 (2024): 569-571.

25. Qaxor o'g'li, X. M. (2024). OMMAVIY MADANIYAT NIQOBI OSTIDA HARAKAT QILUVCHI MAFKURALAR HAMDA ULARNING YOSHLAR ONGIGA TASIRI. *Ustozlar uchun*, 57(4), 569-571.

26. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).

27. Kholikulov, M. (2023). Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism.

28. Qaxor ogli, Xoliqulov Muhammad. "IDEOLOGICAL AND THEORETICAL BASIS OF SUFISM." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* (2022): 389-393.

29. Qaxor ogli, X. M. (2022). IDEOLOGICAL AND THEORETICAL BASIS OF SUFISM. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 389-393.